

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi
“Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda jamiyat barqarorligini ta’minlashda ayollarning o‘rni va roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishida ishtirok etishga taklif etadi.

Tashkilotchilar: ***O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti.***

Konferensiyaning maqsadi – O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xotin-qizlarning jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni va roli, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida ayollar duch kelayotgan muammolarni muhokama qilish, ularni tizimli bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Konferensiyaning o‘tkazish shakli: an’anaviy shakl (shaxsiy ishtirok) va onlayn.

O‘tkazish vaqti: 2025-yil 21-oktabr.

Konferensiyaning yo‘nalishlari:

1-sho‘ba. Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ularning jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni va roli.

2-sho‘ba. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xotin-qizlar bandligini ta’minlash va tadbirkorligini takomillashtirish masalalari.

3-sho‘ba. Yangi O‘zbekistonni barpo etishda xotin-qizlarning ta’lim va ilmfan sohasidagi imkoniyatlarini rivojlantirish masalalari.

Konferensiya yakunlari bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda, jamiyat barqarorligini ta’minlashda ayollarning o‘rni va roli, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarda ayollar duch kelayotgan muammolarni muhokama qilish, ularni tizimli bartaraf etish ayollar uchun dolzarb muammolarni aniqlash va xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish masalalari, jamiyatda salbiy stereotiplarni kamaytirish, xotin-qizlarga teng huquq va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha takliflar, taqdimotlar (ma’ruzalar) hamda tezislar qabul qilinadi. Konferensiya yakunlari bo‘yicha konferensiya materiallari to‘plamini nashr etish rejalashtirilgan. To‘planning elektron varianti O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi saytiga joylashtiriladi.

Konferensiyada qatnashish uchun: xalqaro va milliy darajadagi tashkilotlar vakillari, OTM professor-o'qituvchilari, talabalari, doktorantlar, magistrantlar, amaliyotchi mutaxassislar taklif etiladi.

Konferensiyaning ishchi tillari: o'zbek, rus, ingliz tillari.

Maqolalarni yuborish uchun talablar:

Matn hajmi — kamida 5 betdan 7 betgacha, A4 hajmda, matn shakli Microsoft Word, yozuv shrifti - Times New Roman, harflar hajmi 14 kegl, satrlar oralig'i 1,5 intervalda. Yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 1,5 sm, o'ngdan 1,5 sm;

Yuqoridan bosh harflar bilan maqola mavzusi yoziladi, bir intervaldan so'ng muallifning familiyasi, ism-sharifi, ish joyi (oliy o'quv yurti, ilmiy tadqiqot muassasasi) nomi va lavozimi, shuningdek bog'lanish uchun telefon raqami yoziladi, bir intervaldan so'ng matn keltiriladi;

Tezisni tayyorlashda foydalanilgan adabiyotlar har bir sahifa ostida havola (snoska) tarzida beriladi.

Internet-resurslardan (Google Tarjimon va boshqalar) foydalanilgan izohlarning tarjimalari lingvistik va semantik jihatdan to'g'riligi tahrir qilinishi shart.

Barcha taqdim etilgan materiallar antiplagiat dasturi yordamida sinovdan o'tkaziladi (originallik 70% dan kam bo'lmasligi kerak).

Tezislarning mazmuni konferensiyada muhokama qilingan masalalarni aks ettirishi, tezis oxirida esa amaliy tavsiyalar berilishi kerak.

Maqola va tezislarning mazmun-mohiyati, ma'lumotlarning aniqligi uchun mualliflar shaxsan javobgar hisoblanadi.

Talablarga javob bermaydigan maqolalar to'plamga kiritilmaydi.

Maqolalarni qabul qilish muddati: 2025-yil 5-oktabr.

Ijrochi: Ilxamova Zumrad.

Telefon: +998 93 983 78 60.

e-mail: zumradilhamova@gmail.com

NAMUNA

MAQOLA NOMI

Safarova Rohatoy Gaybullayevna,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
bo‘limi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor

Gulyamova Aziza Otabek qizi,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: (uch tilda) _____.

Tayanch so‘zlar: (uch tilda) _____.

Asosiy matn _____

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: “Universitet” nashriyoti, 2006. – 212 b.
2. Hamrayev M. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari. – Toshkent: “Sharq” NMAK, 2015. – 123 b.

ISHTIROKCHI ANKETASI

Muallif(lar) familiyasi, ismi, sharifi	
Yo‘nalish/sho‘ba nomi	
Tezisning nomi	
Ilmiy darajasi, ilmiy unvoni	
Ish joyi	
Lavozimi	
Aloqa uchun telefon raqami (hudud kodi bilan)	
Elektron pochta	